2. Contrastive Analysis – This approach examined ways of expressing evaluation through synonym and antonym pairs. The words used for evaluation in different languages and their synonymic sets were compared. For instance, pairs such as *"beautiful" – "ugly"*, *"useful" – "harmful"*, and *"brave" – "cowardly"* were analyzed to determine how evaluative functions are shaped and their semantic boundaries defined (Cruse, 2000).

3. Pragmatic Analysis – The role of contextual evaluation and discursive means was explored. This method allowed for observing how the meaning and function of linguistic units shift in textual contexts. For instance, the sentence *"You are truly an amazing worker!"* may seem like positive praise in literal meaning but could be interpreted as sarcasm or irony depending on the context (Grice, 1975).

4. Corpus Analysis – The frequency of evaluative means in actual texts was studied. This analysis examined various texts, including journalistic, academic, and literary materials, to determine how evaluative means are employed. For example, corpus data from national newspapers were used to analyze the frequency of words such as *"perfect"*, *"excellent"*, *"awesome"*, and *"terrible"* (Biber et al., 1999).

Through these methods, the lexical, grammatical, phrasemic, and pragmatic aspects of evaluative means were thoroughly analyzed. The results provided insight into how evaluation is expressed across different linguistic layers, its semantic characteristics, and how it changes depending on speech context.

RESULTS. Lexical Means. Evaluation is expressed in language through various lexical units.

Evaluative Words and Expressions. Language systems contain words that convey both positive and negative evaluations. Examples include:

- Positive evaluation: *"excellent"*, *"outstanding"*, *"successful"*, *"beautiful"*, *"commendable"*.
- Negative evaluation: *"bad"*, *"ugly"*, *"useless"*, *"uncomfortable"*, *"unsuccessful"*.

Evaluative expressions intensify subjective opinions, such as:

- *"Beyond belief"*, *"a sight for sore eyes"* (positive);
- *"A grave mistake"*, *"a futile effort"* (negative).

Synonyms and Antonyms. Evaluation is often conveyed through synonyms and antonyms. Examples include:

- Synonyms: *"amazing" – "excellent" – "superb"* (positive); *"bad" – "horrible" – "unsuccessful"* (negative).
- Antonyms: *"beautiful" – "ugly"*, *"success" – "failure"*.

Grammatical Means: Modal Verbs. Modal verbs play a crucial role in expressing evaluation. They serve epistemic (expressing degrees of certainty) and deontic (expressing obligation or necessity) functions:

- Epistemic: *"Perhaps this is a good idea"*, *"This is certainly true"*.
- Deontic: *"This must be done"*, *"You should complete this"*.

Modal Words

Modal words also contribute to evaluation: *"certainly"*, *"definitely"*, *"possibly"*, *"undoubtedly"*, *"perhaps"*.

Phrasemes and Expressions: Phrasemes and metaphors are widely used in the evaluation process:

- Positive evaluation: *"Doing one's best"* (indicating effort), *"A heart of gold"* (kind person).

- Negative evaluation: *"A lazy hand"* (indolent person), *"Not telling the truth"* (liar).

Metaphor and Metonymy:

- Metaphor: *"A stone heart"* (merciless person), *"Morning star"* (remarkable individual).
- Metonymy: *"Many hands make light work"* (collaboration improves outcomes).

Pragmatic Means: Evaluation is also achieved pragmatically.

Contextual Evaluation

Evaluation is shaped not only by lexical and grammatical units but also by intonation, tone, and facial expressions. For example:

- *"You did a great job"* – positive tone expresses praise.
- *"You did a great job"* – sarcastic tone conveys criticism.

Discursive Means

Evaluation is frequently expressed through explanations and reasoning:

- *"This book is highly useful because it provides clear examples".*
- *"This book is not very engaging as it is written in a complex style".*

DISCUSSION. Evaluation is widely studied in any language as a means of expressing subjective attitude. The findings of this study indicate that the evaluation process is carried out through various linguistic means and is not limited to lexical units alone. Semantically, the positive and negative connotations of evaluative words are clearly distinguished, and their changes in pragmatic contexts are analyzed. For example, synonymic and antonymic relationships serve as key factors in intensifying the degree of evaluation within a language system (Leech, 1981).

Grammatically, modal verbs and modal words play a crucial role in the evaluation process. Their epistemic and deontic functions contribute to the formation of evaluative expressions, making the assessment more precise and subjective. A pragmatic approach, on the other hand, demonstrates that evaluation is not solely expressed through linguistic units but can also be conveyed through speech situations, tone, intonation, and context (Grice, 1975).

Phraseological and metaphorical means also possess evaluative characteristics, manifesting differently across cultural layers. For instance, while some languages extensively employ metaphors to enhance the evaluation process, others emphasize phraseological expressions more (Cruse, 2000). This suggests that the linguistic properties of evaluative tools may be language-specific.

The expression of evaluation through discursive means is realized based on argumentation and explanation. The analysis results indicate that the evaluation process can be interpreted differently depending on the context. For example, sarcastic or ironic expressions may carry either positive or negative meanings depending on the pragmatic context (Biber et al., 1999). Additionally, corpus analysis findings reveal that the frequency and usage of evaluative tools vary across different genres. While neutral and precise evaluation styles prevail in scientific texts, expressive and emotionally charged language is more common in journalistic and literary texts.

These analyses demonstrate that the application of evaluative linguistic tools and their semantic features depend on various contexts and language layers. Evaluation is a subjective process, and its expression varies from language to language and from culture to culture. Therefore, studying the evaluation process through lexical, grammatical, phraseological, and pragmatic approaches is of great importance in linguistic research.

CONCLUSION. According to the findings of this study, linguistic tools that express evaluation and value form a multifaceted and complex system, manifesting at different levels of language. The following key conclusions were drawn from the research:

1. Lexical aspect: Evaluative words and phrases are used in the language system to express positive and negative assessments. Synonym and antonym pairs form the semantic foundation of the evaluation process.
2. Grammatical aspect: Modal verbs and modal words play a crucial role in expressing evaluation. They allow for the expression of subjective judgment through epistemic and deontic meanings.
3. Phraseological and metaphorical aspect: Phrases and metaphors serve evaluative functions in various cultural contexts. These tools

TAMADDUN NURI

can be stronger means of expression compared to evaluative words.

4. Pragmatic aspect: Evaluation can be interpreted differently depending on the pragmatic context. Intonation, sarcasm, and discursive tools provide a more precise expression of evaluation.

5. Corpus analysis findings: The frequency and usage of evaluative tools in texts vary depending on the genre. While scientific texts tend to favor a neutral evaluation style, journalistic and literary texts exhibit stronger expressiveness.

Thus, evaluation is an integral part of the language system, and its forms of expression may vary. This study serves as a significant foundation for future linguistic research, paving the way for a deeper analysis of the evaluation process.

REFERENCES:

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). *Longman Grammar of Spoken and Written English.* Pearson Education.
2. Cruse, A. (2000). *Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics.* Oxford University Press.
3. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation.* In Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), Syntax and Semantics, vol. 3, pp. 41-58.
4. Leech, G. (1981). *Semantics: The Study of Meaning.* Penguin Books.
5. Wierzbicka, A. (1996). *Semantics: Primes and Universals.* Oxford University Press.
6. Lyons, J. (1977). *Semantics.* Cambridge University Press.
7. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*. Edward Arnold.
8. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
9. Stubbs, M. (2001). *Words and Phrases: Corpus Studies of Lexical Semantics.* Blackwell.
10. Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation.* Oxford University Press.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 811.512.133:008

OTA-ONAGA HURMAT OLIY QADRIYAT SIFATIDA

Muqimova Zohida Rasulovna, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RESPECT FOR PARENTS AS A HIGHEST VALUE

Mukimova Zohida Rasulovna, Senior Researcher, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Uzbek Academy of Sciences, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

УВАЖЕНИЕ К РОДИТЕЛЯМ – ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ

Мукимова Зохида Расуловна, старший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора академии наук Республики Узбекистан, доктор философии по филологии (PhD)



https://orcid.org/0009-0006-6429-5022
e-mail: zohidamuqimova69@gmail.com

Annotatsiya*: Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Farzandlarning qadriyatlarga sodiqligi esa oila sarbonlari bo‘lgan ota-onaga bog‘liqdir. Ushbu maqolada ona-onani hurmat qilish, e’zozlash oliy qadriyat sifatida tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar*: qadr, qadriyat, аксиология, barqaror birlik, maqol, topishmoq, ma’naviy lingvomadaniy kod, antropomorf lingvomadaniy kod.*

Abstract*: In the East, instilling national values in children begins with the family. Children's loyalty to values depends on the heads of the family, the parents. This article examines the highest value of respecting and honoring parents.*

Key words*: value, axiology, stable unity, proverb, riddle, spiritual linguistic and cultural code, anthropomorphic linguistic and cultural code.*

Аннотация*: На Востоке привитие национальных ценностей в детские сердца начинается с семьи. Детская верность ценностям зависит от родителей, глав семьи. В данной статье почитание родителей рассматривается как высокая ценность.*

Ключевые слова*: значение, ценность, аксиология, устойчивая единица, пословица, загадка, духовно-лингвистический код, антропоморфный лингвокод.*

KIRISH. O‘zbek oilasida o‘zbek millatiga xos qadriyatlar, urf-odatlar saqlanadi. Oilada shakllangan o‘zbek millatiga xos madaniyat, mehr-oqibat, odob-axloqqa oid his-tuyg‘ular nafaqat tarbiya vazifasini o‘taydi, balki insoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishida muhim vazifa bajaradi. Oila mas’ullari ota-onaning dunyoqarashi, ma’naviyati, bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati, jamiyatdagi mavqeyi farzand tarbiyasiga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Farzandlarning qadriyatlarga sodiqligi esa oila sarbonlari ota-onaga bog‘liqdir. Bilamizki, “Qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo‘lsa-da, qadriyatlarning eng oliysi insonning o‘zi, hayoti, huquqi, erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi” [7:333]. Farovon va sog‘lom turmush qurishning ilk maktabi bo‘lsa, kishining oilasi, ota-onasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ayonki, “qimmatli”, “foydali” ma’nosini bildiruvchi “qadriyat” tushunchasi “…tabiiy va ijtimoiy hayotda

namoyon bo‘ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma’naviy omillar yig‘indisidir”[2:8]. Bundan ma’lumki, inson dastlab oilada nima foydali-yu, nima foydasiz ekanligini anglay boradi. Ota-ona o‘zi uchun qimmatli bo‘lgan narsani farzandiga ham qimmatli ekanligini uqtirib boradi. “Xullas, inson faoliyati davomida o‘zi uchun muhim va nomuhim bo‘lgan narsa-hodisalarni belgilab borib, olamga qadriyatli munosabatini shakllantiradi. Bunda olam haqida u ega bo‘lgan har qanday axborot ishtirok etadi”[8:69]. М.Фармонова to‘g‘ri aytganidek, “Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni ma’nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari o‘zaro muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari, so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me’yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir”[2:8].

MUHOKAMA. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda ham o‘zining tarixiy, madaniy, umumbashariy va milliy qadriyatlarga egaligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, har bir millat vakili oila muqaddas ekanligini, uni ulug‘lash, e’zozlash zarurligini, unda umuminsoniy va milliy qadriyatlar aks etganligini his qilishi lozim. Ma’lumki, oila tushunchasi ota-ona, er-xotin, farzand (o‘gil bola, qiz bola) tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. X.Qodirova o‘zining “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni” nomli maqolasida O‘zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanishini ta’kidlab, milliy qadriyatlar qatorida “Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish” qadriyatini ham keltiradi[2:18]. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek millatida oila – muqaddas dargoh, uning mas’ullariga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish bo‘lsa eng oliy tuyg‘udir.

Tilshunos olima O.Anorqulova “O‘zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini” nomli dissertatsiyasida “Ota” konseptining nasriy va nazmiy janrlardagi “gulshan”, “pir”, “ustoz”, “shohi zamon”, “sarv”, “beminnat zot”, “sadaf”, “chiroq” birliklarining “xazina” kabi badiiy, “narvon” kabi pragmatik ma’nolari aniqlangan”ini[1:8] ta’kidlaydi. Olima ushbu tadqiqotining bir faslini “O‘zbek xalq topishmoqlari matnida “ota” konseptining milliy-madaniy xususiyatlari” deb nomlab, unda “ota” konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritgan. Ishda topishmoqlar matnida ota shaxsi nimagadir qiyoslanganda, albatta, o‘sha narsa eng asosiy, eng kerakli bo‘lishini, ota oilaning asosi bo‘lib, boshqaruv, ta’minot ham uning zimmasida ekanligini, ota konsepti aks etgan maqol va topishmoqlar xalq ijtimoiy hayotining hamma sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o‘zida mujassamlashtirishini ta’kidlangan[1:16-17].

Ma’lumki, o‘zbek xalqi qadriyatlarining tarixiy ildizlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodida ko‘proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni talqin qilingan. Aytmoqchimizki, xalq topishmoqlarida – jumboqlarida ham xalq tafakkuri, madaniyati, qadriyatlari yaqqol ifodalanadi. Tilshunos D.Xudoyberganova ta’kidlaganidek, “Voqelik unsurlariga ijobiy yoki salbiy munosabatni aks ettirish ham topishmoqlarga xos xususiyatdir. O‘zbek xalq topishmoqlaridan birida insonning ismi qamchiga qiyoslanadi. Bu qamchi oddiy qamchi emas, zar qamchidir. U asrlar davomida ham chirimaydi: *Otam bergan zar qamchi / Ming yilda ham chirimas (Ism)*. Ko‘rinadiki, ushbu topishmoqda xalqning ismlarni avloddan avlodga meros sifatida olib o‘tishi, milliy qadriyat sifatida ardoqlanishi o‘z aksini topgan”[9:7]. Z.Husainovaning yozishicha, “O‘tmishda tabiat va tabiat hodisalarining o‘zi bir jumboq bo‘lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va yecha olmaganlar, ularga u sirlar bir mo‘jizaday bo‘lib ko‘ringan. Shaxs o‘zini qurshab turgan tashqi obyektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo‘l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash va ba’zan qarama-qarshi qo‘yish bilan o‘rgana boshlagan. Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, ko‘k guldurashi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg‘ir

yog‘ishi kabilarning mohiyatini to‘la anglab yetmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ularning hammasida jon bor, deb tasavvur qilganlar. Bunday tushunchalarning ba’zi ko‘rinishlari topishmoqlarda ham uchraydi. *Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi* topishmog‘ida quyosh, oy, yulduzlar insonga qiyos qilinib, jonlantirib berilishi ibtidoiy tushunchalar bilan bog‘liq. Chunki inson hali tabiat va uning sirlarini to‘g‘ri tushunib yeta olmagan, totemistik tushunchalar hukmron bo‘lgan paytlarda quyosh va oyni otalik va onalik boshlang‘ichi – ota va ona deb tasavvur etgan”[3:176]. Bundan ayonki, topishmoqlar zamini kishilarning qadimiy e’tiqod va tasavvurlari, olamni bilib borish va idrok etish darajasi bilan bog‘liqdir.

Tunda chiqar onasi, Necha minglab bolasi, Bekinishar qo‘rqqandan, Kelib qolsa otasi; *Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi*; *Onasi bitta, Bolasi mingta* (Oy va yulduzlar) topishmoqlarida Quyosh, Oy, Yulduzlar, *Onangni quyosh bilsang, Otangni oy bil* maqolida Quyosh va Oy insonga qiyos qilinib, jonlantirib berilishi ibtidoiy tushunchalar bilan bog‘liq. Bu kabi topishmoqlarning kelib chiqishi Quyosh, Oy va Yulduzlar bilan bog‘liq qadimgi kosmogonik tasavvurlarni o‘zida aks ettirgan miflarga borib taqaladi. Inson hali tabiat va uning jumboqlarini to‘g‘ri tushunib yeta olmagan paytlarda quyosh va oyni otalik va onalik boshlang‘ichi – ota va ona deb tasavvur etgan. Dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan bu an’anaviy syujetning o‘ziga xos talqini o‘zbek xalqi og‘zaki ijodida ham qayd etilgan. “Folklorshunos M.Jo‘rayev tomonidan Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanidagi Ko‘rishkent qishlog‘ida yashovchi Sharifa Yodgorovadan yozib olingan afsonada aytilishicha, qadimda Quyosh bilan Oy turmush qurishgan ekan. Ularning farzandlari shu qadar ko‘payib ketibdiki, har qaysisiga alohida ism qo‘yish uchun nom topolmasdan, barini “yulduz” deb atay boshlabdilar. Hamma oilada bo‘lgani singari Quyosh bilan Oy o‘rtasida ham ba’zan kelishmovchiliklar bo‘lib turar, qoni issiq Quyosh bunaqa paytlarda birpasda lovullab, tutaqib ketib, Oyning yuzini yulib olar ekan, shuning uchun ham Oy yangi tug‘ilgandan keyin asta-sekin xuddi yara bitganday to‘lishib borar emish. Bilamizki, bu – afsona. Bunda Oy Quyoshning xotini deb talqin qilinmoqda. Bu esa o‘zbek xalqi barqaror birliklarida Oyni ayol jinsiga mansub xayoliy obraz sifatida tasvirlash an’anasiga to‘la mos keladi”[4:45].

Bir otadan besh o‘g‘il (*Barmoqlar*) topishmog‘ida jumboqlangan subyektlar: ota – qo‘l, o‘g‘il – barmoq bo‘lsa, *Otasi ko‘taram, Onasi yo‘rg‘a, O‘g‘li qo‘shiqchi, Qizi o‘yinchi* (*Ko‘prik, suv, baqa, baliq)* topishmog‘ida esa jumboqlanayotgan subyektlar: *otasi* – ko‘prik, *onasi* – suv, *o‘g‘li* – baqa, *qizi* – baliq. Bundan ko‘rinadiki, xalqimiz butunlikni, yakdillikni oila tushunchasi orqali his qilishgan hamda *oila* so‘zi bilan uyadosh bo‘lgan so‘zlar orqali boshqa narsa-buyum, voqea-hodisalarning badiiy obrazini yaratishda mohirona foydalangan. *Bir otadan besh o‘g‘il* (*Barmoqlar*); *Ikki onaga beshtadan bola, Har birining oti bor* (*Qo‘l, barmoqlar*); *Bir suprada Besh bola* (*Qo‘l, barmoqlar*) topishmoqlari fikrimizni yanada isbotlaydi. Boisi qo‘lning butunligi, sog‘lomligi barmoqlar bilandir.

NATIJALAR. O‘zbek xalq maqollarida, topishmoqlarida oila tushunchasi bilan bog‘liq ota, ona, farzand, aka, uka, opa, singil, nevara, buva, buvi kabi lisoniy birliklarning lingvomadaniy kod sifatida ifodalanishi ko‘p kuzatildi. Tilshunos olima D.Lutfullayeva ta’kidlaganidek, “Turli voqeliklarning ongda aks etgan assotsiativ aloqasi tilda ham bir-birini eslatuvchi birliklarning assotsiativ bog‘lanishini yuzaga keltiradi. Masalan, daraxtning o‘sishi uchun tuproq, suv kabilar zarur; daraxt o‘rmon, bog‘, maydonda o‘sadi. Daraxtning tuproq, suv, bog‘ kabilar bilan aloqasi inson xotirasida *daraxt* leksemasi orqali *tuproq, suv, o‘rmon, bog‘, maydon* leksemalarining yodga tushishiga sababchi bo‘ladi”[5:22]. Oilaning ota, ona, farzand bilan uzviy aloqadorligi inson ongida *oila* leksemasi orqali *ota, ona, bola* (*farzand*), *aka, uka, opa, singil, nevara, buva, buvi* va shu kabilarni yodga tushiradi. Qarindoshlikni bildiruvchi ushbu so‘zlar o‘zbek xalq maqollarida, topishmoqlarida lingvomadaniy kod bo‘lib kelgan. Jumladan: “*Ot bosganni toy bosar*; *Otim ketsa, toycham bor, to‘nim ketsa, parcham bor*; *Kun hisobini oy olar, bedov o‘rnini toy olar*; *Toy ot bo‘lsa, ot ozod bo‘lar”*. Ushbu maqollarda *“ot”* zoomorf lingvomadaniy

TAMADDUN NURI

kodi ota, *“toy”* zoomorf lingvomadaniy kodi farzandni bildiradi. Mazkur maqollardan *“Ota o‘rnini farzand bosar”* gapi yoki *“Qush uyasida ko‘rganini qilar”* maqoli mazmuni anglashiladi. *“Qo‘zichoqdan qo‘y bo‘lar, Qulunchadan – toy”* barqaror birligida ham xuddi shunday ma’no uqiladi. Bunda yuvosh, sodda otaning farzandi ham yuvosh, sodda; mard, epchil otaning farzandi mard, epchil bo‘lishi ta’kidlangan. *“Otning fe’li egasiga ma’lum”* maqolida esa *“ot”* zoomorf lingvomadaniy kodi farzand tushunchasini ifodalagan. *“Har toycha o‘zi suv ichgan bulog‘ini maqtar”* maqolida *“toycha”* zoomorf lingvomadaniy kodi farzand yoki umuman insonni anglatadi desak ham to‘g‘ridir. *“Toy qoqilmay yo‘l topmas, Er qoqilmay – do‘st”* maqolida esa o‘smir, er yigit toyga qiyoslangan. Bundan anglashiladiki, o‘zbek tili barqaror birliklarida *ot, toy* zoomorf lingvomadaniy kodlari erkak kishilar ramzi sifatida qo‘llangan”[6:137].

Ota-onasidan bolasi shirin (*Tok, bargi, uzum*); *Bir onadan yuz bola, Yuzovi ham bo‘z bola* (*Tok, uzum*); *Otasi bukri xo‘ja, Onasi yoyma chalpak, Bolasi shakarpalak* (*Tok bargi, uzumi*) topishmoqlarida *ota-ona* antropomorf lingvomadaniy kodlari tokni, *bola* antropomorf lingvomadaniy kodi bo‘lsa, uzumni ifodalab kelgan. *Ona-bola yemas-ichmas, Dasturxondan nari jilmas* (*Choynak, piyola*) topishmog‘ida *ona* antropomorf lingvomadaniy kodi choynakning, *bola* antropomorf lingvomadaniy kodi piyolaning, *O‘g‘a-ini ming botir, ko‘m-ko‘k gilamda yotir (Osmon, yulduzlar*) topishmog‘ida *og‘a-ini* antropomorf lingvomadaniy kodi, *Chinni, chinni, chinni qiz, Chin tepaga chiqdi qiz. Bolalarin iyartib, Tomoshaga chiqdi qiz (Oy va yulduzlar*) topishmog‘ida esa *bolalar* antropomorf lingvomadaniy kodi yulduzlarning badiiy ifodasidir. O‘zbek xalq topishmoqlarida oila tushunchasi bilan bog‘liq lingvomadaniy kodlar qatnashgan topishmoqlarni yanada davom ettirishimiz mumkin. Masalan, *Otasi egri, Bolasi chopqir yo‘rg‘a* (*Ariq, daryo*); *Bolalari qarsak chaladi, onalari o‘yinga tushadi* (*Terak va uning barglari*); *Otasi uyda qolar, bolasi bozor borar* (*Mevali daraxt*); *Otasi bor, enasi bor, O‘n ikkita bolasi bor* (*Narvon*); *Onalari tokchadan tushsa, Bolalari yugurib keladi* (*Choynak, piyola*); *Ikki og‘a-inini, Bir ustunga bog‘ladim* (*Tarozi*); *Ikki singil, Og‘ir-yengil* (*Tarozi*); *Mening bitta oshnam bor*: *To‘rtta o‘g‘li bor, O‘n ikkita nevarasi bor, Har qaysining nomlari bor* (*Bir yil, to‘rt fasl, o‘n ikki oy*) kabi.

XULOSA shuki, yurt tinchligini mustahkamlashda, aholining xotirjam, sog‘lom yashashida qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Har bir kishi qadriyatlarni hurmat qilishi zarur, jumladan, ota-onani ardoqlash, e’zozlash qadriyatini ham.

Qadriyatlarimizning qadrlanishida tilning ham o‘rni va ahamiyati beqiyos. Qadriyatlar borasidagi tilshunoslikdagi bajarilgan va bajariladigan tadqiqotlar qadriyatlarimizni asrab-avaylashda va kelajakka bezavol yetkazishda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi. O‘zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – B.8.
2. Фармонова М. Қадриятлар – маънавий камолот асоси. Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: Тасвир нашриёт уйи, 2019. – Б.8.
3. Ҳусаинова З. Топишмоқлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988. –176 б.
4. Жўраева М.Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. – Тошкент, 2017. – Б. 45.
5. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент, 2017. – Б. 22.
6. Muqimova Z.Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida): Monografiya. – Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. – B.137-138.
7. Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. – Б.333.
8. Usmonov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.doktori diss. – Toshkent, 2024. – B.69.
9. Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №5. – Б. 7-8.

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 37.015.4.(575.1)

Рецензия под редакцией профессора Г.К.Машариповой

ИММАНЕНТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЛОСОФСКО-СУФИЙСКОГО ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ

Агзамходжаева Шахноза Саидматмабовна, Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности, доктор философских наук



https://orcid.org/0009-0005-6829-859X
e-mail: shaxnozaxon9977@bk.ru

ALISHER NAVOIY FALSAFIY-SO‘FIY IJODINING IMMANENT XUSUSIYATLARI

Agzamxo‘jaeva Shahnoza Saidmatmabovna, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, falsafa fanlari doktori

IMMANENT FEATURES OF THE PHILOSOPHICAL-SUFI CREATIVITY OF ALISHER NAVOI

Agzamkhodjaeva Shakhnoza Saidmatmabovna, Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Doctor of Philosophy

Аннотация: *В данной статье исследуется суфийская терминология, использованная в произведениях Навои для выражения его сокровенных мыслей, духовного состояния и мистических устремлений. Особенно насыщены суфийскими понятиями его любовная лирика, эпосы «Язык птиц», «Фархад и Ширин», «Лейли и Маджнун» и другие. Произведение «Насаим уль-мухаббат» целиком посвящено суфизму, жизни и творчеству великих шейхов. Наряду с широким использованием суфийских понятий, Навои разрабатывает свой категориальный аппарат, свою классификацию терминов, расставляя эти категории в иерархической последовательности, соответствующей его мировоззрению и ценностным установкам.*

Ключевые слова: *имманентность, особенности, философско-суфийская творчества, мистика, суфийская терминология, категориальный аппарат, классификация, иерархическая последовательность, тасаввуф.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Navoiy asarlarida uning botiniy fikrlari, ruhiy holati va tasavvufiy intilishlarini ifodalashda qo‘llagan so‘fiylik terminologiyasi ko‘rib chiqiladi. Uning ishq lirikasi, “Lison ut-tayr”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” va boshqa dostonlari, ayniqsa, so‘fiylik tushunchalari bilan to‘yingan. “Nasoyim ul-muhabbat” asari to‘liq tasavvufga, buyuk shayxlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Navoiy so‘fiylik tushunchalarini keng qo‘llash bilan birga o‘zining kategorik apparatini, atamalarning o‘ziga xos tasnifini ishlab chiqadi, bu kategoriyalarni o‘zining dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga mos keladigan iyerarxik ketma-ketlikda joylashtiradi.*

Kalit so‘zlar: *ta’limot, xususiyatlar, falsafiy va so‘fiy ijod, tasavvuf, so‘fiylik terminologiyasi, kategoriya apparati, tasnif, iyerarxik ketma-ketlik, tasavvuf.*

Abstract: *This article examines the Sufi terminology used in the works of Navoi to express his innermost thoughts, spiritual state and mystical aspirations. His love lyrics, epics «The Language of Birds», «Farhad and Shirin», «Leyli and Majnun» and others are especially saturated with Sufi concepts. The work «Nasaim ul-muhabbat» is entirely devoted to Sufism, the life and work of great sheikhs. Along with the wide*

use of Sufi concepts, Navoi develops his own categorical apparatus, his own classification of terms, arranging these categories in a hierarchical sequence corresponding to his worldview and value systems.

Key words: *immanence, features, philosophical and Sufi creativity, mysticism, Sufi terminology, categorical apparatus, classification, hierarchical sequence, tasawwuf.*

ВВЕДЕНИЕ. Одной из главных тем суфийской символики является «ишк» (любовь), которая занимает большое место в творчестве Навои. Он ввел в традиционную узбекскую поэзию особый символический стиль. Трактовка любви в суфийской литературе создала своеобразный образ человека – влюбленного в вечную красоту – в Бога. Не лишая своих героев земных корней, Навои изображает их вечными путниками, ищущими свой путь к Истине (Хак), терпящими на этом пути много горя и бедствий, но непреклонно стремящимися ко Всевышнему.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ (LITERATURE REVIEW). Философским исследованием творчества Навои в советской и отечественной историко-философской науке занимались Н.Маллаев[1], Е.Бертельс [2], И.М.Муминов[3], М.Хайруллаев[4], Х.Аликулов[5], М.Арипов[6], которые изучили отдельные аспекты, связанные с формированием совершенного человека. Особенно обстоятельно изложены взгляды Навои в работах Н.Маллаева, где раскрыта суть мировоззрения Навои как мыслителя и поэта, который находится в поисках Истины [1,стр. 399-626]. Исследованием проблемы суфизма в творчестве Навои и его отношения к этому учению занимались многие ученые. К примеру, М.Шейхзаде отмечает наличие во многих произведениях Навои «суфийского понимания сущности божества, и утверждает, что «Навои никогда не был суфием ни в практическом, ни в теоретическом смысле этого слова» [7,cnh. 100, 112]. Эту точку зрения разделяет и известный литературовед А.Хайитметов, который подчеркивал, что «Навои, как и другие прогрессивные поэты, не стал поэтом-суфием» [8, стр.74].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ (RESEARCH METHODOLOGY). В исследовании использовались методы анализа, синтеза, историзма, кампаративистика.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ (ANALYSIS AND RESULTS). Когда Навои встал на путь суфизма, последний имел уже более чем семивековую историю, сотни различных тарикатов, широко разработанную понятийную структуру. В историческом ракурсе становление суфийской терминологии можно разделить на те же периоды, которые соответствуют историческому прошлому самого учения: возникновение и развитие первоначального суфизма в VII – VIII вв. В это время суфизм проявился в форме умеренного аскетизма. Это относится и к литературным источникам того периода. Суфийские учения тогда были связаны с изучением и составлением комментариев Корана, сборников хадисов, разработкой мусульманского законодательства – фикха.

Ибн Ханбал и аль-Харис аль-Мухасиби был основателем багдадской школы исламской философии, учитель суфийских богословов Джунайда Багдади, Ибн Ата, Сари Сакати и других. Он разработал суфийскую психологию – «науки о сердцах и помыслах». Идеи аль-Мухасиби особенно повлияли на такие суфийские братства (тарикаты), как казаруния и шазилия.

Первым признаком становления суфизма стало появление института духовного наставничества и духовных обителей – ханака как пристанища суфиев. Алишер Навои в своем «Насаим уль-мухаббат» рассказал о появлении первых ханака: Абухашим Суфий, современник Суфъяна Саври, был шейхом в Сирии. Первый ханака был построен благодаря его встрече с другим, совершенно незнакомым дервишем. Свидетелем этой встречи стал император христиан, который охотился в тех местах. Он увидел, как двое дервишей очень мило и ласково поздоровались, сели друг против друга, достали из своих сумок скромную еду, угостили друг друга и по окончании «пиршества» еще более дружно простились меж собой. Император был восхищен этой картиной любезности, догнал одного из дервишей и спросил о степени их родства. Тот ответил, что нет никакого родства. На вопрос: может быть это твой друг или знакомый, был такой ответ: впервые вижу этого дервиша; вопрос: откуда он, может земляк твой?

TAMADDUN NURI

Ответ: я не знаю, откуда, куда и зачем он держит путь. Увидев недоумение христианина, Абухашим сказал, что таковы правила их тариката (ордена). Узнав, что у них нет ни единого места для собраний, встреч и бесед, император построил в Рамле первый ханаках [9,стр.28].

Аттар седьмую долину назвал долиной Растворения Сущности (Фана): высшее теопатетическое состояние единения с Богом, когда сущность тонет в океане любви [10,стр.9]. Но до этого путник, согласно Аттару, должен пройти первые шесть долин: 1)Долина Поиска (Талаб), где путник (салик) должен освободиться от всей принадлежавшей ему собственности, стать нищим и одиноким; 2)Долина Любви (Ишк), которую можно сравнить с земным раем Данте, где начинается стадия просветления; 3)Долина Знания (Маърифат): здесь Бог виден во всем. Это высокая стадия созерцательного общения;
4)Долина Отрешенности (Факр): состояние полного растворения в Боге;
5)Долина Единения (Тавхид): состояние экстаза и блаженных видений;
6)Долина Изумления (Хайрат), о которой можно сказать следующее: «Приближение к восприятию Бога, когда глаза слепнут от Его невообразимого сияния»[10,стр.9].

У Навои эти семь долин названы следующим образом: Долина Исканий (Талаб); Долина Любви (Ишк); Долина Познания (Маърифат); Дол (долина) Безразличия (Истигно); Дол (долина) Единения (Тавхид); Долина Смятения (Хайрат); Дол (долина) Отрешения (Факр-фана) [11,стр.219-220]. Седьмой и последний этап пути суфийского совершенствования, соответствующий обретению вечности в результате полной отрешенности от своего суетного «я» и слияния с искомым «другом», т.е. Аллахом.

Основные макамы: тавба (покаяние); вара (осмотрительность, благочестие) – путник должен стараться не причинить никому зла. На пути духовного подвижничества возникают и другие явления – кратковременные настроения или порывы, обозначающие термином «хал». Последний этап обозначен как хакикат подлинного и реального бытия. Достигнув этой ступени суфи познает истинную природу бытия и Бога.

Учение «вахдат ул-вуджуд» (единство сущего) считает, что истинная сущность явлений окружающего мира едина: между божеством и вселенной, между божественным и природным, между богом и человеком существует закономерная связь. Благодаря этому утверждается формула – все сущее является отражением истинной сущности – окружающее нас бытие едино в своей духовной общности. Поэтому видимый нами мир вещей является не подлинным, а инобытием (маджаз) истинной сущности и представляет собой нечто вторичное, изменчивое и преходящее. Материальный мир по своей сущности, субстанциональной основе произошел из единого духовного начала, которым является бог. Подобно тому как видимые нами волны (мавж), пена (хубоб), капля (катра) имеют своим первоначалом единую воду, точно также и бог является первым источником всего многообразия явлений мира. Видимый и воспринимаемый нами разнообразный мир вещей представляет собой отражение подлинного бытия, истинной сущности или абсолюта.

Идея тавхида (единобожие, монотеизм) в тасаввуфе получает свое онтологическое обоснование в концепции вахдат ул-вуджуд. В русле этого же учения идея тавхида получает также свое морально-этическое и эстетическое обоснование: как уже отмечалось, божество как абсолютная красота (хусни мутлак) и абсолютное добро (хайри мутлак), а постижение его усматривается в любви. Красота эта постоянно находится в состоянии выхода из скрытости (батини) в явность (захири). Природа, вселенная есть зеркало (миръат, кузгу), в котором отражается абсолютная красота во всех своих видимых качествах.

Бог есть абсолютное добро, возникновение материального мира со всеми его ценностями есть следствие проявления абсолютного добра, благодеяние Творца по отношению к человеку; бог — абсолютное, вечное бытие, а все остальное бытие имеет относительный, изменчивый, преходящий характер. Все эти три принципа осмысления бога в концепции вахдат ул-вуджуд выражаются в

теме любви. Эти принципы или правила явно обнаруживаются в поэзии Алишера Навои.

Навои считает сердце человека (кунгул, дил) средоточием сущности вселенной, микромиром, в котором отражаются все особенности макромира. Оно уподобляется влюбленному в розу соловью, свече, освещающей путь к познанию мира и человечности. Существо его определяется двумя добродетелями – красотой и любовью, их единством. Красота – тайна вселенной и жизни, а любовь – средство постижения этой красоты, стимул к ее достижению. Красоту постигает тот, в ком горит жар любви. Любовь требует от человека усилий разума и воли, мужества духа и жертвенности, проявления героизма во имя этой красоты. Этот мотив определяет идейное содержание героико-романтических поэм Навои [12,стр.78].

Вот почему путь любви тернист и труден. Он требует от путника (салика) отшельничества, благочестия и праведности, воздержанности и сосредоточенности, самоанализа, самопознания (мушахада). Влюбленный обрекает себя на множество бед и страданий, его душа бывает в разладе, а сердце – в тоске. Истинно влюбленный отказывается от всех жизненных благ и посвящает себя полностью своей возлюбленной (божеству), он в каждом явлении видит отражение истины и, познавая ее, сам приближается к истине. Эта любовь выступает как организующая сила, очищающая и озаряющая человеческий дух на пути к высшей истине. Этой любовью окрылены герои поэм Фархад, Меджнун и лирический герой (ринд, дервиш) в поэзии Навои. Таковы идейные мотивы философской поэзии, вытекающие из концепции вахдат ул-вуджуд.

Обожествление человека как носителя искры Истины, идентичного по своей сущности с божеством, допускает идею о том, что бог живет в «Я», а живет в боге. Связь между бесконечным (богом) и конечным (человеком) в аллегорической форме изложена в поэме «Язык птиц». В этом труде Навои пишет о том, что назначение человека, смысл его жизни усматривается в постепенном освобождении от этой бытийности путем очищения души от страстей, преодоления ее единства с первоосновой, истиной. Вот что писал Навои в «Мольбе об одолении пути отрешения:

«Кто себя, свою суть в отрешенье не вверг,

Для того самый смысл отрешенья померк.

И тогда им не жаждать вовек единенья –

Нет в таком отрешении в вечность стремленья.

Дай, господь, отрешенье Фани в воздаянье,

Чтобы вечности клад он обрел в достоянье!

Ты в себе уничтожь его бренную суть,

Чтобы, сгинув, обрел он нетленную суть» [13,стр.313].

В повседневной жизни человек, как и все живые существа, подвержен влиянию житейских потребностей и преходящих вещей. Но человек как существо, несущее в себе разумное начало (свет первоисточника), руководствуется разумом и высшими нравственными принципами, стремится к осознанию своей духовной сущности. Человеческий дух в мире акциденций отделившись от своей первоосновы, приобрел свою материальную оболочку (тело), под которой скрылся сам. Душа (нафс) человека отражает дух, но в мире вещей она подверглась влиянию различных аффектов и приобрела двойственность, присущую материальному бытию человека.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Навои широко использовал суфийскую терминологию, продолжил традиции поэзии тасаввуфа и поднял на более высокий уровень. До него были поэты-суфии такие как Ахмад Яссави, Сулейман Бакиргони, Суфи Аллахяр, Пахлаван Махмуд и другие, но они практически не употребляли суфийские метафоры, иносказания. Навои первым ввел эту терминологию в узбекскую литературу.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Маллаев Н.М. Алишер Навоий. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи 1965. – С. 399-626.
2. Бертельс Е.Э. Навои и Аттар // Суфизм и суфийская литература. - Москва, 1965.

3. Муминов И.М Выдающиеся мыслители Средней Азии. – Москва: Знание, 1966.
4. Хайруллаев М.М. Навоий дунёқарашининг ғоявий манбаларини ўрганиш ҳақида // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968.
5. Аликулов Х. Социально-утопические идеи в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1983.
6. Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан, 1991.
7. Шейхзаде М. Навои и наше время. // Родоначальник узбекской литературы. – Ташкент, 1940. - С.100,112.
8. Арипов М. Гуманизм А.Навои. // Ташкент: Узбекистан, 1991. - С.74.
9. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд: Насойим ул-муҳаббат. - Тошкент: «Фан», 2001. - Стр.28.
10. Фаридиддин Аттар. Тазкират ал-аулийа или рассказы о святых. Перевод Ольги Васильевой. – Москва: САМПО. - С.9.
11. Алишер Навои. Сочинение в 10-и томах. - Том VIII. – Язык птиц.- Ташкент: Изд-во Фан Узбекской ССР, 1970. - Стр.219-220.
12. Алишер Навои. Сочинение в 10-и томах. - Том IV. – Фархад и Ширин, Том VIII. – Язык птиц. Ташкент: Изд-во Фан. Узбекской ССР, 1970 . – Стр.78.
13. Алишер Навои. Сочинение в 10-и томах. - Том VIII. – Язык птиц.- Ташкент: Изд-во Фан Узбекской ССР, 1970. - Стр.313.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 03.02.2025 Chop etildi: 31.03.2025 UDK: 801.82:81.102

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA TABIAT VA MUHABBAT TASVIRI

Jo'rayeva Gavhar Eshqobilovna
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ОТРАЖЕНИЕ ПРИРОДЫ И ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ АСКАРА МАХКАМА

Жураева Гавхар Эшкобиловна
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Термезского университета экономики и сервиса

REFLECTION OF NATURE AND LOVE IN THE POETRY OF ASKAR MAHKAM

Juraeva Gavhar Eshqobilovna
Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature Termez University of Economics and Service



E-mail:
gavharj555@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-2240-9450

Annotatsiya. *Ushbu maqola Asqar Mahkamning she'riy ijodida tabiat va muhabbatning badiiy tasvirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shoir ijodida tabiat faqat go'zallik manbai emas, balki insonning ichki dunyosi va falsafiy qarashlarini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. Muhabbat esa inson ruhiyatining eng yuksak kechinmasi sifatida ko'rsatiladi va tabiat bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Maqolada tabiat va muhabbat tasvirining bir-biri bilan bog'liqligi, shoirning badiiy mahorati, tasviriy vositalari va falsafiy yondashuvi keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Asqar Mahkam, tabiat tasviri, muhabbat, o'zbek she'riyati, badiiy talqin, falsafiy yondashuv, ramziylik, estetik go'zallik, inson ruhiyati, uyg'unlik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу художественного образа природы и любви в поэтическом творчестве Аскара Кадма. В творчестве поэта природа проявляется не только как источник красоты, но и как символ, выражающий внутренний мир и философские взгляды человека. С другой стороны, любовь показана как высшее переживание человеческой психики и изображается в гармонии с природой. В статье широко освещается взаимосвязь образа природы и любви, художественное мастерство поэта, изобразительные средства и философский подход.*

Ключевые слова: *Аскар твердый, образ природы, любовь, узбекская поэзия, художественная интерпретация, философский подход, символизм, эстетическая красота, человеческая психика, гармония.*

Annotation. *This article is dedicated to analyzing the artistic depiction of nature and love in the poetry of Asqar Mahkam. In his works, nature is portrayed not only as a source of beauty but also as a symbol reflecting the human Inner world and philosophical views. Love, depicted as the highest expression of human emotions, is harmoniously intertwined with nature. The article explores the interconnection between the depiction of nature and love, highlighting the poet's artistic mastery, imagery, and philosophical approach.*

Key words: *Asqar Mahkam, depiction of nature, love, Uzbek poetry, artistic interpretation, philosophical approach, symbolism, aesthetic beauty, human emotions, harmony.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Asqar Mahkam – o‘zbek adabiyotining yorqin va betakror iste’dod egalaridan biri bo‘lib, uning she’rlari o‘ziga xos badiiy uslub, chuqur falsafiy mazmun va inson ruhiyatini teran ifoda etishi bilan ajralib turadi. U o‘z ijodida milliy she’riyat an’analarini saqlab qolgan holda, zamonaviy badiiy qarashlar bilan boyitdi. Asqar Mahkam she’riyatida tabiat va muhabbat mavzulari alohida o‘rin tutadi. Shoir tabiatni inson his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq holda tasvirlab, uni nafaqat tashqi go‘zallik manbai, balki inson ruhiyatining aks sadosi sifatida ko‘rsatadi. Muhabbat esa Asqar Mahkam ijodining asosiy mavzularidan biri bo‘lib, u shoir uchun oddiy tuyg‘u emas, balki hayotning mazmuni, uning ma’naviy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Muhabbatni tabiat bilan uyg‘un holda tasvirlash orqali shoir inson va borliq o‘rtasidagi ichki aloqani, ularning bir-birini to‘ldiruvchi mohiyatini ochib beradi. Bu yondashuv, shubhasiz, o‘zbek she’riyatiga yangi falsafiy qarashlarni olib kirdi.

Shoirning tabiat va muhabbat tasviri keng badiiy imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu mavzular uning eng chuqur va samimiy hissiyotlarini ifodalashda asosiy vosita bo‘lgan. Ushbu maqolada Asqar Mahkam she’riyatida tabiat va muhabbatning o‘zaro uyg‘unligi, ularning ramziy va ma’noviy talqini ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Asqar Mahkam ijodida tabiat tasviri inson ruhiyati va falsafiy kechinmalarining yorqin in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiatni tasvirlash orqali shoir inson hayotining murakkab va ko‘p qirrali jihatlarini yoritadi. Uning she’rlarida tabiatning eng oddiy manzaralari ham chuqur ma’no kasb etadi. Masalan, quyosh botishi, daryoning sokin oqimi yoki qushlarning uchishi kabi tabiat hodisalari shoirning ichki dunyosini, o‘z kechinmalarini ifodalash uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Tabiat obrazlari orqali inson hayotidagi turli davrlar va o‘zgarishlar tasvirlanadi. Masalan, bahor yoshlik va umidni, kuz esa xotiralar va o’tmishni ifodalaydi:

“Sokin daryo misoli,
Yurak izlarimni yuvadi,
Lekin suv o‘zgarmaydi –
Oqaveradi, oqaveradi”.

Bu satrlar orqali shoir inson hayotidagi vaqt o‘tishining doimiyligini tabiatning o‘zgarishsiz oqimi bilan qiyoslaydi. Tabiat tasvirlari orqali shoir falsafiy qarashlarini ham ochib beradi, u tabiatni inson borlig‘ining o‘zgarmas qismi sifatida tasvirlaydi [1].

Muhabbat tasviri Muhabbat Asqar Mahkam she’riyatining eng yuksak mavzularidan biri hisoblanadi. Shoir muhabbatni faqat romantik tuyg‘u sifatida emas, balki inson ma’naviy hayotining chuqur asosi sifatida talqin etadi. U muhabbatni ichki ruhiy holatlar va tabiat bilan uyg‘unlashtirgan holda tasvirlaydi. Shoirning muhabbat haqidagi she’rlari to‘liq samimiyat, noziklik va chuqur his-tuyg‘ular bilan boyitilgan:

“Sen yo‘q bo‘lsang, tong otmaydi,
Tungi yulduzlar ham sokin.
Muhabbat nafasin sezmasang,
Hayot qachon tirik bo‘lar?”

Bu misralarda muhabbat nafaqat inson qalbining bir qismi, balki hayotni harakatlantiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Shoirning bu tasviri muhabbatni inson hayotidagi eng muhim qadriyat sifatida talqin qilishini ko‘rsatadi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asqar Mahkamning muhabbat haqidagi qarashlarida hayotning murakkabligi va go‘zalligi o‘z aksini topgan. U muhabbatni tabiat bilan uyg‘unlashtirib, insonning bu tuyg‘udan qanday ilhom olishi va o‘zini qay tarzda anglashini yoritadi. Asqar Mahkam she’riyatining asosiy o‘ziga xosligi tabiat va muhabbatning uyg‘un tasvirida namoyon bo‘ladi. Tabiat va muhabbat shoirning ijodida bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim unsurdir. Bu uyg‘unlik orqali shoir inson va borliq o‘rtasidagi aloqani chuqur ramziy mazmun bilan boyitadi. Misol uchun, quyosh botishi muhabbatning so‘nishini yoki yangi tongni kutishni ifoda etsa, bahorning boshlanishi yangi sevgi va umidlarning uyg‘onishini anglatadi:

“Bahor keldi, yurak tinch emas,
Yaproqlar yashar, gullar ochilar.
Bu sevgi bir kun unutiladi,
Lekin tabiat meni unitmas”.

Bu satrlarda shoir muhabbat va tabiatning birgalikdagi tasviridan foydalanib, inson va tabiatning ajralmasligini ifodalaydi. U inson

kechinmalarini tabiat ramzlari orqali chuqurroq va samimiyroq ko‘rsatadi [3].

Shoirning tabiat va muhabbat uyg‘unligiga bo‘lgan yondashuvi adabiy uslubining muhim jihati bo‘lib, u hayot va inson tuyg‘ularini yaxlit bir butunlikda tasvirlaydi. Bu yondashuv shoirning she’riyatida universallik va chuqur ma’no beradi. Asqar Mahkam ijodi juda serqirradir, sababi uning ijodini o‘qigan sari o‘qigisi kelaveradi. Shoir ijodida dard bor, yurakdan yozgani har jabhada sezilib turadi. Shoir aytganidek “She’riga o‘xshamagan shoir, shoir emas”. Demak bu shoir she’rlariga o‘xshagan ekan. Uning ustozi Shavkat Rahmon bo‘lgan. Asqar Mahkam kuchli iymon shoiri bo‘lgan. Hatto o‘zining she’rlarida ham bu aks etib turgan. Tasavvufiy, diniy ilmi yuqori darajada bo‘lganligi, hattoki she’rlarida aks etgan. Kamtarona ijodi bilan xalqini mehrini qozonib, o‘zini barcha sohalarda namoyon qila olgan. Shoir she’rlarida ishq mavzusi ayricha mehr bilan kuylangan. Ishq haqida bir qancha she’rlari alohida ahamiyat kasb etadi. Hattoki ijodni, adabiyotni ibodat deb bilgan. [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Ishq-muhabbat o‘lmas mavzu sifatida necha yillardan beri kuylanib kelingan bo‘lsa-da, har bir davr she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega.Ishq ikki xil ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Haqiqiy ishq va majoziy ishq ko‘rinishida kelishi mumkin. Haqiqiy ishq-Allohga bo‘lgan ishq,majoziy ishq-olam va odamlarga bo‘lgan ishqdir. Ishq mavzusi tariqatning keng tushunchalaridan biri bo‘lib,unga faqat komil insongina yetishishi mumkin.Asqar Mahkam haqiqiy ishqni his qilgan shoirlardandir. Haqiqiy mahbub o‘z sevgisiga yetishish uchun,ishq o‘tida yonadi,kuyadi,hattoki jonidan kechishga ham tayyor bo‘ladi. Bu haqiqiy oshiqlik belgisidir. Ishqning malomatlari, asoratlari, iztiroblari ham yo‘q emas. Bu oshiqlar boshidan kechiradigan qalb kechinmalari hisoblanadi. Bu holatni har bir inson boshidan o‘tkazadi. Asqar Mahkam ana shunday haqiqatni baralla kuylagan shoirlardandir. O‘z she’rlarida ishq mavzusida alohida to‘xtalgan va uni tahlilga tortgan. Hatto bir she’rida o‘zini ham “men-ishqparast,illo-ishqparast” deb ataydi.

Malomat bor,haqoratlar bor,
Alomat bor, asoratlar bor,
Adovat bor, hamoqatlar bor,
Men-ishqparast,illo ishqparast.

